

PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

I.B.Mattiyev

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Tillarni o‘qitish” kafedrasida katta

o‘qituvchisi (PhD), dotsent

+998932240076

ilhom_matiev@gmail.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolda pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, muallif tomonidan fikr mulohazalar ilgani surilgan.*

Kalit so‘zlar: *pedagogika, boshqaruv, rahbarlik.*

Pedagogik jarayonlarda vaziyatlarga ko‘ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanishda professor-o‘qituvchilar bilan o‘quvchi-talabalarda bir-biriga nisbatan ishonch, o‘zaro tushunish, do‘stona munosabat hamda barcha uchun qulay ta’limiy muhit vujudga keladi. Professor-o‘qituvchi o‘zini pedagogik jarayonning bir ishtirokchisi sifatida tutadi, uning oldida har bir o‘quvchi-talaba o‘zini erkin his qiladi va mustaqil va erkin fikrlaydi hamda vujudga kelgan tashabbus, g‘oya va fikrlarini bemaolol ifodalaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi professor-o‘qituvchilar pedagogik jarayonlardagi tashabbuskorlikni rag‘batlantiradi, barcha o‘quvchi-talabalar bilan teng va samimiy munosabatda bo‘ladi, o‘z mavqeyi ustunligini bildirmaydi, hamkorlik uchun qulay vaziyatni yaratadi, o‘quvchi-talabalarga erkin ishtirok etish imkonini beradi, ular tomonidan bildirilgan tanqidga to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi hamda turli xil vaziyatlarni inobatga olgan holda unga mos yondashuvlarni amalga oshiradi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchi-talabalarda ta’lim olishga qiziqishlar shakllantirish, berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va samarali bajarishlariga

undash, pedagogik jarayonlarda ularning faolligini ta'minlash yo'nalishlarida rahbarlik uslublarining turli jihatlaridan foydalanishlarini kuzatish mumkin. Pedagogik jarayonlarda professor-o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan rahbarlik uslublari quyidagilarga asosan aniqlanadi:

- pedagogik jarayonlarda o'quvchi-talabalarning mustaqil va erkin fikrlashi, o'z fikri, g'oya va tushunchalarini erkin ifodalashi hamda vaziyatlarga ko'ra ularning faol ishtirok etish darajasi;

- o'quvchi-talabalarning ilmiy-metodik mahsulotlar, topshiriqlarni bajarish yo'nalishidagi ko'rsatmalar hamda eng yangi, ilmiy asoslangan ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi;

- pedagogik jarayonlarda barcha uchun qulay ta'limiy muhitni shakllanishi, ya'ni subyekt munosabatlarini vujudga kelishi;

- professor-o'qituvchilar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llanilayotgan ish uslublari, ya'ni o'quvchi-talabalar bilan bo'ladigan munosabatlarda ularning o'ziga xos yondashuvi.

Ko'pchilik mutaxassislar rahbarlik uslublarini tasniflashda mazkur jarayonning bosh mezoni va tashkiliy tamoyili sifatida yakkaboshchilik bilan kollegiallik nisbatining ustuvorligiga e'tibor berishadi. Shundan kelib chiqib, rahbarlik uslublarining mazmun va mohiyatiga ko'ra avtoritar uslubiga to'xtalib o'tamiz.

Avtoritar (direktiv) uslubda professor-o'qituvchilar o'z irodasini o'quvchi-talabalarga ma'muriy kuch vositasida o'tkazishga intiladi, ya'ni majburlash, qo'rqitish, jazolash va boshqa chora-tadbirlardan foydalanadi. Bu uslub bevosita buyruq va ko'rsatmalar berishga asoslanib, o'quvchi-talabalarni so'zsiz bo'ysunishini nazarda tutadi, ya'ni pedagogik jarayonlarda o'quvchi-talabalar erkinligi cheklanadi hamda faqat professor-o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning bevosita va erkin muloqotda bo'lishi chegaralab qo'yiladi. Bunday vaziyatda o'quvchi-talabalarning pedagogik jarayonga munosabatlari, ularning ehtiyojlari va manfaatlari psixologik jihatdan e'tiborga olinmaydi.

Bu "ajratib tashla va hukmronlik qil" tamoyiliga asoslangan

shafqatsizlarcha uslubdir. Bunday uslub garchi bir-muncha samarali bo'lsa ham, aslida, pedagogik jarayonlarda muxoliflik, norozilik kayfiyatini shakllantiradi. Bunday uslub ta'sirida o'quvchi-talabalar o'z o'quv faoliyatidan qoniqmaydi, uning natijalariga qiziqmaydi va bular o'z navbatida pedagogik jarayonning samaradorligini pasayishiga sabab bo'ladi. Bunda mazkur uslubning turli xil shakli va usullari vujudga keladi:

- mutloq diktatorlik shakli - professor-o'qituvchilar pedagogik jarayonning yagona subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi, mazkur jarayonda o'quvchi-talabalar faol ishtirok etmaydi. Bunday uslubdan foydalanuvchi professor-o'qituvchilar muttasil buyruq berishga, majburlash, qo'rqitish orqali o'quvchi-talabalarni o'z istaklariga so'zsiz bo'ysundirishga intiladi, natijada o'quvchi-talabalarda ta'lim uchun ta'lim olish, ya'ni o'z faoliyatidan qoniqmasdan yoki o'rganilayotgan fanga qiziqishsiz ta'lim olish, shaxsiy qiziqishlarsiz va manfaatlar uyg'unlashuvisiz ta'lim olish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqib ta'lim olish, majburan ta'lim olish yo'nalishidagi motivlar shakllanadi;

- avtokratik usul - yakkahokimlik tushunchasini bildiradi, ya'ni hukmronlikni amalga oshiruvchi professor-o'qituvchilarning ixtiyorida keng imkoniyat va vakolatlar bo'lishini ko'zda tutib, bu ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvning byurokratik turi;

- patriarxal yoki matriarxal shaklida professor-o'qituvchilar "oila boshlig'i" mavqiyedan foydalanish yordamida pedagogik jarayonlarni tashkil etadi va boshqaradi, o'quvchi-talabalar ularga nisbatan juda katta ishonch bildirishadi va shunga asosan bo'ysunishadi;

- iltifotli - xarizmatik shakli, bunda professor-o'qituvchilar shaxsning o'ziga xos takrorlanmas donolik, hayrixoxlik, qahramonlik, mardlik kabi xususiyatlariga

asoslangan yuqori darajadagi mavqiyedan foydalanadi, o'quvchi-talabalar uning hatti-xarakatlarini, maqsadlari yo'nalishini o'zaro munosabatlar jarayonida kuzatishadi, shuningdek, uning ijobiy sifatlariga, ichki dunyoqarashiga hurmat bilan qarashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov Q., Yu.Odegov va boshqalar. Personalni boshqarish. Toshkent: "Sharq", 1998.
2. Abdurahmonov Q. H., D.N.Rahimova va boshqalar. Davlat xizmati personalini boshqarish. - Toshkent: "Akademiya", 2002.
3. Adizova T. M. Boshqaruv muloqoti. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2000.
4. Маттеев И. Б. (2016). Некоторые направления государственной политики здоровьесбережения как педагогический фактор формирования здорового поколения. Бюллетень науки и практики, (10 (11)), 358-363.
5. Маттеев И. Б. (2022). Социально-педагогическая необходимость развития здравоохранения для студентов. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 300-304.
6. Маттеев И. Б. (2019). САЛОМАТЛИКНИ АСРАШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ДОЛЗАРБЛИК САБАБЛАРИ ВА ОМИЛЛАРИ. Интернаука, (14-2), 56-58.
7. Маттеев И. (2017). Саломатликни асрашга йўналтирилган технологиялар: ўқитувчилар компетенцияси масалалари. вестник каракалпакского государственного университета имени бердаха, 35(2), 61-64.
8. Tones K, Tilford S. Health promotion: effectiveness, efficiency and equity. 3rd ed. Cheltenham, UK: Nelson Thornes, 2001. [ISBN 0748745270](#);
9. Turg'unov S. T. Zamonaviy ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. - Namangan: NVPQTMOI, 2004.